

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYANING RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY AHAMIYATI

Norboyev Sardor Qavmiddinovich

Mustaqil izlanuvchi

Tel: +998905131403

Elektron pochta: sardornorboyev1403@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10363345>

Annotatsiya. Ushbu maqola asosan, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning rivojlanish tarixi va bosqichlari, shuningdek, Konstitutsiya va uning rivojining davlat va jamiyat hayoti uchun huquqiy ahamiyatiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, O‘zbekiston SSR, inson huquqlari, demokratiya.

THE DEVELOPMENT OF THE CONSTITUTION AND ITS LEGAL SIGNIFICANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article is mainly devoted to the history and stages of the development of the Constitution in the Republic of Uzbekistan, as well as the legal significance of the Constitution and its development for the life of the state and society.

Key words: Constitution, Uzbekistan SSR, human rights, democracy.

РАЗРАБОТКА КОНСТИТУЦИИ И ЕЕ ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. Данная статья в основном посвящена истории и этапам развития Конституции в Республике Узбекистан, а также юридическому значению Конституции и ее развитию для жизни государства и общества.

Ключевые слова: Конституция, Узбекистан ССР, права человека, демократия.

“Konstitutsiyaning rivojlanishi va konstitutsiyaviy islohotlar – inson huquqlari garovidir”

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari o'z xalqi va millatini saqlash, manfaatlarini himoya qilish uchun ularning avvalo, huquq va erkinliklarini ta'minlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi, Sababi, millat manfaati mamlakati rivoji uchun xizmat qiladi. Har qaysi davlat o'z taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, fuqarolarining huquq va erkinliklarini ulug'lash va ularni hurmat qilish, shuningdek, yuksalishi uchun o'z maqsad va yo'lini asosiy qonuni bo'lmish – Konstitutsiyaga belgilab qo'yadi. Konstitutsiya davlatga nimaga kerak degan savol paydo bo'lishi mumkin. Konstitutsiya shubhasiz, qonunlarining asosi va ularni tartibga solib turish uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladigan oliy yuridik hujjat sanaladi. Shuningdek, “**Konstitutsiya** - butun huquqiy tizimning uyushtiruvchi, hamjihatlashtiruvchi markazi, “tizim” hosil qiluvchi o'zagi bo'lib, barcha huquq tarmoqlari va qonunchilik sohalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi yuridik asosdir”¹.

Shu bilan birgalikda, “Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va

¹ Odilqoriyev X.T “Davlat va huquq nazariyasi” Darslik. - T.: Toshkent “Adolat” 2018. B.420

shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi”².

O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning rivojlanishi bevosita sovet davriga ham borib taqaladi. Chunki O‘zbekiston tarixida birinchi marta 1927-yilda Konstitutsiya qabul qilingan.

“1924-yil 27-oktabrda RSFSR tarkibida bo‘lgan Turkiston ASSR hamda Buxoro va Xorazm sotsialistik sovet respublikalari hududlarining bir qismida O‘zbekiston SSR tuzildi. O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30-martda Butuno‘zbek Sovetlari ikkinchi s‘ezdida qabul qilingan. Poytaxti Samarqand shahrida bo‘lgan va tarkibiga Tojikiston ASSR ham kirgan O‘zbekiston SSR “ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati” deb e‘lon qilindi, bunda “butun hokimiyat ishchilar, dehqonlar va Qizil Armiya deputatlari sovetlariga tegishli” ekani belgilandi.

O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 10 yil davomida – 1937-yilgacha amal qildi. 1936-yilda SSSRning “stalincha” konstitutsiyasi qabul qilingandan so‘ng O‘zbekiston SSRning Asosiy qonuni ham yangi tahrirda qabul qilindi. Xuddi avvalgi konstitutsiyada bo‘lgani kabi O‘zbekiston SSR “ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati” deb e‘lon qilindi. Tojikiston ASSR 1929-yilda ittifoq respublikasiga aylantirilgan va shu tariqa O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqarilgan edi. O‘zbekiston SSR tarkibiga Qoraqalpog‘iston ASSR kirdi, respublika okruglar, tumanlar, milliy tumanlar va shaharlarga bo‘lindi. Poytaxt Toshkent shahriga ko‘chirilgan edi.

1978-yilda “Stalincha” konstitutsiya “Brejnev” konstitutsiyasi bilan almashtirildi. O‘zbekiston “respublikadagi barcha millat va elatlar, ishchilar, dehqonlar va ziyolilarning irodasi va manfaatlarini ifodalovchi umumxalq sotsialistik davlati” deb e‘lon qilindi”³.

Ushbu siyosiy jarayonlar, mamlakat huquqiy muhitiga albatta o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Chunki konstitutsiyaning rivoji, xalqning huquq va erkinliklarining ta‘minlanishi kaliti sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin, eng avvalo konstitutsiyani yangilash ishi bilan shug‘ullandi va mamlakat hayotini tubdan takomillashtirish maqsadida SSSR sarqitidan qolib ketgan siyosiy tizimni o‘zgartirish harakati qildi.

“Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi. Buni xorijiy mamlakatlarning davlatchiligi va huquqiy tizimlarini rivojlanishida ko‘p kuzatganmiz. Haqiqatdan ham, hozir dunyoda konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritmagan birorta davlat qolmadi. So‘nggi 25 yilda 100 dan ortiq davlatda konstitutsiyaviy islohotlar bo‘ldi. Faqatgina XXI asrda 57 ta davlatda konstitutsiya qabul qilindi. Hozir dunyoda birorta davlat qolmadiki, unga o‘zgartirish kiritilmagan bo‘lsa. Hatto AQShda ham 27 ta katta-katta o‘zgartirish kiritilgan”⁴.

² https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/08/constitution-day/>

⁴ Saidov A.S “Yangi Konstitutsiya hamda konstitutsiyaviy islohotlar”. “Republican Scientific and Practical Conference” Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022 December 1

1989–1992-yillarda 1978-yilgi konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi: o‘zbek tili davlat tili deb e‘lon qilindi, prezident va vitse-prezident lavozimlari ta‘sis etildi, Vazirlar Kengashi Vazirlar Mahkamasiga o‘zgartirildi, Vazirlar Kengashi raisi lavozimi tugatilib, Vazirlar Mahkamasi raisining vazifalari prezidentga o‘tkazildi.

Shu tariqa, 1992-yil 8-dekabr sanasida mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Konstitutsiyaning vujudga kelishi insoniyat tarixi taraqqiyoti mahsuli bo‘lib, u butun dunyoda rivojlanishga katta hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimovning “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e‘tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir”⁵, - degan so‘zlari faqat O‘zbekiston konstitutsiyasiga emas, umuman Konstitutsiyalarga berilgan bahodir.

Konstitutsiyaning rivojlanishining yana bir uzviy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi tarixida yana bir Konstitutsiyalardan biri – 2023-yil 1-may kuni kuchga kirgan Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

“Davlatimiz rahbari 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashganida asosiy qonunga qator normalarni kiritish bo‘yicha takliflarni ilgari surdilar:

Fuqarolarning huquq va erkinliklari yo‘nalishida:

1. O‘zbekiston fuqarosi mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar yoki yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega (propiska cheklovlari qaytib hech qachon tiklanmaydi);
2. Har bir fuqaroga mamlakatdan to‘siqlarsiz chiqish va qaytish huquqi kafolatlanadi;
3. Shaxsiy hayot daxlsizligi kafolatlanadi;
4. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilmaydi;
5. Har bir shaxs qulay mehnat sharoitida ishlash, mehnati uchun munosib haq olish huquqiga ega;
6. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasi hayot kechirishi uchun yetarli miqdorda bo‘lishi kerak.

Sud-huquq sohasida:

1. “Miranda qoidasi”: shaxsni ushlab chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirish berish shart;
2. “Xabeas korpus” instituti: shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas;
3. O‘lim jazosi taqiqlanadi;
4. Shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo‘lishi mumkin emas;
5. Mahbuslarga nisbatan insoniy munosabat va ularning qadr-qimmatini ta‘minlanishi shart;
6. Ma‘muriy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy javobgarlik va boshqa yo‘nalishdagi ishlarni ko‘rib chiqishda insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta‘sir choralari – qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo‘lishi hamda shaxsga imkon qadar yengillik yaratishi kerak;
7. Sudning qarorisiz hech kim uy-joyidan mahrum qilinmasligi kerak;

⁵ Karimov I.A “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. 93-bet.

8. Imorat buzilishga tushganda buzishdan oldin uning qiymatiga mos kompensatsiya to'lanishi shart;
9. Uy-joyga yoki shaxsning boshqa mol-mulkiga uning ruxsatisiz kirish, ularni ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazishga faqat qonunda belgilangan holat va tartibda yo'l qo'yiladi.

Oila instituti:

1. Oila ayol va erkakning (oldingi Konstitutsiyada "tomonlarning" deyilgan) ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanadi;
2. Homiladorligi yoki yosh bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi;
3. Ko'p bolali oilalarga imtiyoz va ijtimoiy kafolatlar beriladi;
4. Ota-onalar o'z farzandlari voyaga yetguniga qadar ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lig'i, to'laqonli va barkamol rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish huquqiga ega va bunga majburdir;
5. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishi lozim;
6. Davlat yoshlarni ma'naviy va axloqiy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun sharoit yaratishi lozim.

Ta'lim, tibbiyot ekologiya:

1. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
2. Davlat maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimini, turli mulk shaklidagi, jumladan, xususiy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratib berishi lozim;
3. "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" degan umumiy norma kengaytiriladi;
4. Ekologik-huquqiy normalar kengaytiriladi"⁶.

Shu va shu kabi yangilik va o'zgarishlar konstitutsiyaning bundan keyin dolzarbligini saqlab qoladi va konstitutsiyaning rivojlanishini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaning huquqiy ahamiyati shundan iboratki, uning mamlakat hayotidagi o'rni siyosiy tizimni bir maromda hakaratlanishiga yordamlashishi bilan belgilanadi. Konstitutsiya mamlakatning siyosiy tuzilmasi va huquqiy munosabatlar tuzilmasini belgilaydi. U mamlakatning maqsadlari, muddaolari va tartiblari, davlatning tashkil etish prinsiplari, siyosiy va huquqiy organlarning tashkil etilishi va vazifalari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat va xalqning munosabatlari va shu kabi bir qator masalalar haqida ma'lumot beradi. Konstitutsiya davlatning qonunchiligini ta'minlash uchun davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadi va o'zgartirishlar ham amalga oshirish imkonini ham beradi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan: "To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik

⁶ Saidov A.S "Yangi Konstitutsiya hamda konstitutsiyaviy islohotlar". "Republican Scientific and Practical Conference" Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022 December 1

jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”⁷ – deb aytilgan ushbu so‘zlar konstitutsiyaning nechog‘lik muhim va ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonda Respublikasida konstitutsiya rivojlanmoqda va bundan keyin ham rivojlanib boradi. Bu esa shubhasiz, uning dolzarbligini va mamlakat hayotida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Konstitutsiya bu – inson huquqlari demakdir.

REFERENCES

1. Karimov I.A “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. 93-bet.
2. Odilqoriyev X.T “Davlat va huquq nazariyasi” Darslik. - T.: Toshkent “Adolat” 2018. B.420
3. Saidov A.S “Yangi Konstitutsiya hamda konstitutsiyaviy islohotlar”. “Republican Scientific and Practical Conference” Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022 December 1
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil
5. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/08/constitution-day/>

⁷ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil